

O`QITUVCHINING JAMIYATDAGI O`RNI

Achildiyeva Zilola Ergashovna

*Angor tuman 1- son kasb- hunar maktabi matematika fani o`qituvchisi
Termiz Iqtisodiyot va Servis universitetining magistranti 2- bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo`lgan ta`lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada hozirgi zamon o`qituvchisining jamiyat hayotidagi o`rni haqida fikr yuritiladi.*

Kalitso`z: *“Aqliy hujum”, “Tarmoqlar”(Klaster) “Assesment” metodlari, “Bumering”, “Skarabey”, “Charxpalak”, “Rezyume” “Keysstadi”, TASIS-TEMPUS, KOYKA,*

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farov onligini ta`minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir. Mus taqillikni qo`lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o`tgan taraqqiyot yo`li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim sub'ekti bo`lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib t arbiyalash muhim masalasi axamiyatga ega.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo`lgan ta`lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mu staqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta`lim tizimini isl oh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy qilish hamda ta`lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.



O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzlusiz ta'lim orqali zamonaviy kadrlar ta yyorlashning asosi yaratildi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-

tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almas hinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini tala b etadi. O'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan o'quvchilarining ruxiyatlariga mos ravish da muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llay olishi kerak. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni

zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchrama ydi. Odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llanil adi, chunki pedagogik texnologiya –

bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlilik, natija, ya'ni o'quv jara yonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'na ltirilgan jarayondir. O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, usul, metod va texnoli giya tushunchalarining farqlay olishlari, "Aqliy hujum", "Tarmoqlar"(Klaster) "Asses ment" metodlari, "Bumerang", "Skarabey", "Charxpalak", "Rezyume" "Keysstadi" va shu kabi texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalana olishlari lozim. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innov atsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axb ortni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.



Ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg`armasi, Germaniyadagi Texnikaviy hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKO xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YuNESKO, Jahon banki, TASIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSh, Angliya, Franciya, Yaponiya, Daniya, Xitoy, Gollandiya Oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorligi

kengayib bormoqda. Ta`lim ravnaqi uchun 150 mln. AQSh dollari hajmida chet el investiciyalari jalb etildi. Oliy o`quv yurtlarining yuzlab professor-o`qituvchilari “Ustoz” jamg`armasi bilan xorijiy oliy o`quv yurtlarida malaka oshirib keldilar. O`zbekiston ta`lim tizimi dunyo miqyosida katta qiziqish uyg`otmoqda. Moskvadagi Oliy ta`lim Xalqaro Fanlar akademiyasi prezidenti V. Shukshunov O`zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo`q hujjat, deb ta`rifladi. O`zbekistonda yaratilayotgan ta`lim tizimi “Ta`limning o`zbek modeli” deb e`tirof etildi. Bularning barchasi o`qituvchiga bo`lgan e`tiborning namoyishidir.

O`qituvchining jamiyatdagi o`rni millatning ertangi kunini belgilaydi. Tan olish kerakki, maktab ostonasiga ilk qadam qo`yganimizda qo`limizga qalam tutqazib, alifboni o`rgatgan birinchi ustozimiz siymosini, uning mehnatini doimo minnatdorlik bilan eslaymiz. Agar biz ta`lim – tarbiya ishini yuqori darajaga ko`tarmoqchi bo`lsak, biz birinchi navbatda o`qituvchi, muallim, ustoz ijtimoiy maqomini ko`tarishimiz kerak, chunki bu xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Ochilov M, Oliy maktab pedagogikasi.T.2008

Baxtiyor.uz

Arxiv.uz

Hozir.org